



THE CENTRAL ASIA DIRECTION IN THE FOREIGN POLICY OF SAUDI ARABIA

Furqat Tuxtayev

Doctoral student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Kingdom of Saudi Arabia, Turkmenistan, Tajikistan, Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article aims to reveal the relations between the Kingdom of Saudi Arabia and the countries of Central Asia. The article analyzes the bilateral relations between Saudi Arabia and the countries of the Central Asian region, the dynamics of development of mutual cooperation, and the priority directions of cooperation.

SAUDIYA ARABISTONI TASHQI SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO YO'NALISHI

Furqat To'xtayev

Tayanch-doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Saudiya Arabistoni Podshohligi, Turmaniston, Tojikiston, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston.

Annotatsiya: Ushbu maqola Saudiya Arabistoni Podshohligi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaqidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan. Maqlolada Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo mintaqasi davlalari o'rtaqidagi ikki tomonlama aloqalar, o'zaro hamkorlikning rivojlanish dinamikasi, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari tahlil etilgan.

ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ САУДОВСКОЙ АРАВИИ

Фуркат Тухтаев

Докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Королевство Саудовской Аравии, Туркменистан, Таджикистан, Казахстан, Узбекистан, Киргизстан.

Аннотация: «Эта статья посвящена раскрытию отношений между Королевством Саудовская Аравия и странами Центральной Азии». В статье анализируются двусторонние отношения между Саудовской Аравией и странами Азии, центральная бизнес-динамика взаимного сотрудничества и сильные направления сотрудничества.

KIRISH

Saudiya Arabistoni Podshohligi Yaqin sharq va arab davlari orasida katta mavqega ega davlatlardan biri hisoblanadi. Saudiya Arabistoni Xitoy boshchiligidagi SHHT ga qo'shilishni maqulladi. Bundan kelib chiqadiki Saudiya Arabistoni tashqi siyosatida faqatgina AQSHga bog'lanib qolmaslik siyosatini amalga oshirmoqda. shu o'rinda MArkaziy Osiyo davlatlari bilan ham aloqalrini kengaytirmoqda desak mubolag'a bol'maydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi siyosatining muhim yo'nalishalaridan biri Fors ko'rfazi arab davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirish hisobalanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Fors ko'rfazi arab mamlakatlari o'rtasida ikki va ko'p tomonlama aloqalar faol rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Fors ko'rfazi arab davlatlari bilan hamkorligining asosiy ustuvor yo'nalishlari iqtisodiy manfaatlari asosida qurilgan bo'lib, mintaqada davlatlarining investitsion salohiyatidan O'zbekiston taraqqiyotida keng foydalanishga erishishga asoslangan.

O'z navbatida Fors ko'rfaz arab davlatlari, xususan, Saudiya Arabsitoni va Birlashgan arab amirliklari uzoq kuzatuvdan keyin Markaziy Osiyo davlatlariga katta miqdordagi sarmoyalarni yo'naltira boshladi. Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni asosan energetika sektoriga sarmoya kiritayotgan bo'lsa, Ummon Sultonligi mintaqaning transport sohasiga qiziqish bildirgan, Tojikiston va Qirg'izistonda masjidlar qurishga mablag' ajratayotgan Qatar davlatining asosiy maqsadi bugungi kunda biroz noma'lumligicha qolmoqda. Bundan tashqari Qozog'iston respublikasi va Saudiya Arabistoni o'rtasida ham yaqinlashuvlar kuzatilmoqda. Jumladan "Nigoh 2030" dasturi doirasida Qozog'iston ko'magida o'zining kosmik dasturini yaratish va boshqa maqsadlar ko'zlangan kelishuvlar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Saudiya Arabistoni podshohligi va Markaziy Osiyo davlatlari aloqalari avvalgiga qaraganda ancha rivojlanib, o'zaro aloqalar mustahkamlanib bormoqda. Jumladan Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu yaqqol namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston tashqi siyosiy konsepsiysi va bir qator hujjatlarda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-

yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan hujjatda *95-maqсад* sifatida - An‘anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish qayd etilgan[4]. Unda “Arab davlatlari (BAA, Saudiya Arabiston, Quvayt, Qatar, Misr) bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro hamkorlikni jadallashtirish” masalasi alohida vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, Saudiya Arabiston o‘rtasida imzolangan kelishuvlar to‘la amalga oshirilmadi. Bu ko‘p jihatdan Yaqin Sharq va Afg‘onistonda davom etgan beqarorlik, 1999 yilda Toshkentda sodir etilgan terrorchilik harakatlari va 2001 yil voqealari sharoitida saqlanib qolgan davlatlararo ishonchszilik bilan bog‘liq edi. O‘z navbatida, O‘zbekiston ham arab olamining barcha imkoniyatlari va xavflarini sinchiklab o‘rgandi.

Hamkorlikning ikkinchi bosqichi bu 2017-yildan bugungi kunga qadar. Bu davrda O‘zbekiston Prezidenti sifatida Sh.Mirziyoyevning hokimiyat tepasiga kelishi Fors Ko‘rfazi arab davlatlari bilan hamkorlikda yangi davrni boshlab berdi. Ikki tomonlama tashriflarda siyosiy-iqtisodiy hamkorlik masalalari keng muhokama qilinish jarayoni boshlandi va iqtisodiy loyihalar faollashdi.

Saudiya Arabiston Podshohligi. 2017-yil 21-may O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabiston Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol-Saudning taklifiga binoan Saudiya Arabistonida bo‘lib, arab-musulmon va Qo‘shma Shtatlar sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida O‘zbekiston Prezidenti bir necha davlat rahbarlari, jumladan, Saudiya Arabiston Podshohi bilan uchrashdi.

2018-yil 27-mart Saudiya Arabiston tashqi ishlari vazirining o‘rinbosari A.Mirdad boshchiligidagi delegatsiya Afg‘oniston bo‘yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlik sohasidagi hamkorlik" deb nomlangan Toshkent konferentsiyasida ishtirok etdi. 2019-yil 20-26-yanvar kunlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi J.Akramov boshchiligidagi hay’at Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi. Tashrif chog‘ida Saudiya Arabiston Podshohligi Haj va Umra ishlari vaziri Salih Bintayn bilan uchrashuv o‘tkazildi.

O‘mon Sultonligi. 2018-yil 15-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov va O‘mon meros va madaniyat vaziri Haisam ibn Tariq al-Said Ummjon nomining molivayi yordami bilan qurilgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining yangi binosining ochilish marosimida ishtirok etdi.

Qozog‘iston va Saudiya Arabistoni davlatlari o‘rtasidagi strategic hamkorlik ham mustahkamlanib yangi bosqichga kirib bormoqda .Qozg‘iston tashqi ishlar vaziri va Saudiya Arabistoni investitsiya vaziri Xolid Al-Falih o‘rtasida bo‘lib otgan uchrashuvda ham ko‘plab ha,korlik masalalari korib chiqilgan. Jumladan Saudya kompaniyalari qo‘shma korxonalar tashkil etish istiqboli bilan Qozog‘iston salohiyatini o‘rganishga taklif qilindi.

Saudiya Arabistoni investitsiya vaziri Xolid AL-Falih “ Mamlakatingiz bilan munosabatlarni maxfiy siyosiy muloqot, o‘zro manfaatli savdo va iqtisodiy aloqalar, shuningdek iqtisodiyotingizga katta sarmoya kiritishni o‘z ichiga olgan eng jiddiy darajaga olib chiqish bugun biz ichun juda muhim” deya fikr bildirib o‘tdi.

Turkmaniston davlati bilan ham yaxshi aloqalar o‘natilmoqda. Ikkala davlat o‘rtasida 2023-yilning 22-oktabrida Ar-Riyod shahrida Turkmaniston tashqi ishlar vazirio‘rinbosari B.Myatiyev boshchiligidagi delegatsianing Saudiya Arabistoni Podshohligiga tashrifi doirasida siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Maslahatlashuvlar chog‘ida tomonlar siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlik darajasini yuqori baholab, Turkmaniston-Saudiya munosabatlarini yanada rivojlantirish yo‘llarini muhokama qildilar. Tashrif doirasida Turkmaniston delegatsiyasi Saudiya Arabistoni Global Pipelinekompaniyasi vakillari bilan han uchrashuv o‘tkazdi.Bundan tashqari yanvar oyida Turkmaniston muftiyligi va Saudiya Arabistoni Haj va Umra vazirligi o‘rtasida yaqin diniy va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida Turkmanistonlik ziyoratchilarining 2024-yilda ziyoratlarini bajarishi to‘g‘risida bitim imzolandi.

Ar-Riyod shahrida 2022-yil 9-noyabrda Qirg‘iziston va Saudiya Arbistoni Podshohligi o‘rtasida birinchi vakillararo siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi. Qirg‘iziston delegatsiyasiga tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Azizbek Madarov, Saudiya Arabistoni gelegatsiyasiga siyosiy masalalar bo‘yicha vazir o‘rinbosari Saud Al-Sati boshchilik qilgan.

Tashrif chog‘ida Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning Saudiya Arabistoniga rasmiy tashrifini tashkil etish va uning mazmun-mohiyatiga alohida e’tibor qaratildi.Shuningdek, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va Qirg‘izistonda turizm, gidroenergetika, qayta tiklanadigan energiya, qishloq xo‘jaligi va yer osti boyliklaridan foydalanish sohalarida o‘zaro manfaatli sarmoyaviy lohiyalarni ilgari surish zarurligini qayd etib otishgan.

Tojikiston va Saudiya Arabistoni davlatlari o‘rtasidagi hakmorlik aloqalari 1992-yil 22-fevralda o‘rnatalgan. Markaziy Osiyo davlatlari bilan davom etayotgan yaxshi aloqalar qatorida

Tojikiston davlati va Saudiya arabistoni o‘rtasidagi diplomatic aloqlar ham yaxshilanib bormoqda desak mubolg‘a bo‘lmaydi.

Jidda shahrida bo‘lib o‘tgan GCC- Markaziy Osiyo sammitidagi nutqi chog‘ida Tojikiston Respublikasi prezidenti Imomali Rahmon Markaziy Osiyo davlatlari va Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi (GHK) o‘rtasida mustahkam aloqalr mavjudligini ta’kidladi. Bu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘rnatilganiga 30 yil bo‘layotganligi va ikkala davlat rahbarlarining mustahkam irodalari tufayli aloqalar yanada yaxshilanib muslahkam tus olib borayotganini takidlaydi Saudiya arabistoni elchisi Valid ibn Abdulrahmon Reshay. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan malumotlarga ko‘ra Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi siyosiy-diplomatik a‘loqlar yaxshilanib borayotganining guvohi bo‘klishimiz mumkin.

XULOSA

Tahlil etilgan va o‘rganilgan ma’lumotlar asosida Saudiya Arabistoni podshohligining Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari borasida quyidagilarni xulosa sifatida bildirish mumkin:

1. Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari qadimdan o‘zaro hamkorlik aloqalariga ega. Ikki mintaqaning taraxiy va sivilizatsion jihatdan yaqinligi, islom diniga e’tiqod qilishi hamda davlatchilik taraqqiyotida o‘zaro aloqadorliklarning mavjudligi Saudiya Arabistoni Podshohligi Va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratmoqda.
2. Markaziy Osiyo va Saudiya Arabistoni davlatlari bilan hamkorlik munosabatlari asosan 1992 yildan boshlangan bo‘lib, bugungi qunga qadar davom etib aloqalar mustahkamlanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Saudiya Arabistoni Markaziy osiyo davlatlariga sarmoyalar kiritish va boshqa aloqlar o‘rnatishga qiziqish bildirayotgani Markaziy osiyo davlatlarining ham Arab dunyosining yetakchi davlatlaridan biri bo‘lmish Saudiya Arabistoni bilan aloqlarni yaxshilashga intilayotganini xulosa qilish mumkin.
3. Fors Ko‘rfazi Arab davlatlari tomonidan Markaziy Osiyo salohiyatli bozor va muhim geosiyosiy mintaqqa sifatida to‘liq qabul qilinmayapti yoki yetarlicha baholanmayapti. Shu bois Fors Ko‘rfazi arab davlatlari bilan imzolangan shartnomalar va harakatlar to‘liq o‘z samarasini berayotganligi yo‘q. Shunday bo‘lsada, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Ummon va Quvatning Markaziy Osiyo intilishi iqtiboldagi iqtisodiy manfaatdorlik hamda mintaqqa chegarasida shakllangan o‘zaro geosiyosiy raqobat fonida yuz bermoqda.
4. O‘zbekistonning hozirda Saydiya Arabistoni va Arab davlatlari bilan hamkorligining muhim jihat bu energetika sohasida bo‘lib, O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanining drayveri sifatida ko‘rilgan enegratika muammolarini arab davlatlari tajribasi va investitsiyasi orqali yengillatishga

ham intilmoqda . Bu esa O‘zbekistonning boshqa yetakchi davlatlar bilan munosabatda muvozanatni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega deyishimiz mumkin. Bundan tashqari Saudiya Arabistoni bilan aloqlarda Markaziy Osiyo davlatlari haj safarlari borasida ham ko‘plab yengilliklar yaratilishiga erishmoqdalar/

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni aloqlaridagi yangi davr <https://president.uz/oz/lists/view/5433> .
2. Qozog‘iston Respublikasi va Saudiya Arabistoni munosabatlari mustahkamlanmoqda <https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-jeddah/activities/2064?lang=en>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son // <https://lex.uz/acts/3107036>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
5. O‘zbekiston Respublikasining O‘rtta, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorligi // O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi rasmiy sayti // <https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-africa - 03.04.2023>
6. Turkmaniton Respublikasi va Saudiya Arabistoni munosabatlari <https://www.newscentralasia.net/2022/12/20/turkmenistan-is-interested-in-developing-long-term-fraternal-ties-with-saudi-arabia/>
7. Qirg‘iziston Respublikasi va Saudiya Arabistoni munosabatlari <https://www.specialeurasia.com/2022/03/23/saudi-arabia-kyrgyzstan/>
8. Tojikiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni aloqlari <https://www.mfa.tj/en/main/view/133/relations-of-tajikistan-with-saudi-arabia>